




**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-sentabr oylarida 2496,6 ming so'mni tashkil etib, viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida 3416,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 136,8 %), Guliston shahrida 3062,9 ming so'mni (122,7 %), Yangiyer shaharida 2716,0 ming so'mni (108,8 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston tumanida **1927,0** ming so'mni (**77,2** %), Mirzaobod tumanida **2036,7** ming so'mni (**81,6** %), Oqoltin tumanida **2017,9** ming so'mni (**80,8** %), Sardoba tumanida **2105,2** ming so'mni (**84,3** %), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda

**Hududlar bo'yicha viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (% da)**



(viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm)

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020 - yil Yanvar-sentabr	2021 - yil Yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2216,5</b>	<b>2496,6</b>	<b>112,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2559	3063	119,7
Shirin	2782	3416	122,8
Yangiyer	2406	2716	112,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2210	2018	91,3
Boyovut	1846	2149	116,4
Guliston	1962	1927	98,2
Sayxunobod	1751	2454	140,2
Mirzaobod	2247	2037	90,6
Sardoba	1893	2105	111,2
Sirdaryo	1895	2241	118,2
Xovos	2150	2407	112,0

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili.

(2021- yilning yanvar – sentabr oylarida)

**Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2336,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,6 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2448,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 16,1 % ga tushdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2329,4 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 19,8 % ga tushdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1254,9 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 23,9 % ga tushdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2920,1 ming so'm ga to'g'ri keldi va 2020 - yilning shu davri bilan taqqoslaganda 18,7 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5701,3 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 33,0 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2305,8 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 14,3 % ga oshdi.




- **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 156,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 10,0 % ga oshdi.

➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2874,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 18,0 % ga oshdi.




➤ **2021 - yil yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2496,6 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 112,6 % ga o‘sgan.**



### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2021 - yil yanvar-sentabr oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda )



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021- yildagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1-sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

